

BIOGRAFIK METOD HAQIDA QARASHLAR

*Hakimova Shahnoza**Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotshunoslik uchun biografik metodning ahamiyati, muallif shaxsiyatining badiiy asarga ta'siri, shu bilan birgalikda ijodkor laboratoriyasiga oid qarashlar tahlil qilinadi. Biografik metod va uning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan bir qator olimlarning nazariy fikrlari hamda o'zbek adabiyotshunoslarining ushbu mavzuga aloqador mulohazalari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: biografik metod, biografiya, badiiy asar, o'zbek adabiyotshunosligi, ijodkor laboratoriyasi, ijodkor shaxsiyati, xotiralar.

Abstract: This article analyzes the importance of the biographical method for literary studies, the influence of the author's personality on a work of art, and at the same time, views on the creative laboratory. The biographical method and the theoretical ideas of a number of scientists who played an important role in its emergence are discussed, as well as the comments of Uzbek literary scholars on this topic.

Keywords: biographical method, biography, work of art, Uzbek literary studies, creative laboratory, creative personality, memories,

Kirish. Hayotni badiiy aks ettirish usullari adabiyotshunoslikda "metod" deb yuritiladi. "Metod" atamasi ostida badiiy asarning g'oyaviy mazmuni bilan bog'liq bo'lgan hayot materialini tanlash, poetik idrok etish va baholash tamoyillari ham tushuniladi. Ya'ni metod endi poetik tafakkur tarzi sanalib, u badiiy adabiyot e'tiborini voqelikning u yoki bu qirralariga qaratishi, tipiklashtirishi va baholashida namoyon bo'luvchi hodisa hisoblanadi.¹ Dunyo adabiyotshunosligida, qolaversa, milliy adabiyotshunosligimizda ham keng tarqalgan hamda samarali metodlardan biri bu biografik metoddir.

Muhokama. Biografik metod (yunoncha bios–hayot, grapho–yozmoq) adabiyotshunoslikdagi kontekstual tahlil metodlaridan biri. Ushbu metod XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan bo'lib, asoschisi sifatida fransuz olimi Sh. Sent-Buyov e'tirof etiladi. Biografik metod badiiy asarni muallifning hayot yo'li kontekstida o'rganishni nazarda tutadi. Zero, badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslanadi, shunday ekan, uning ko'p qirralari muallif biografiyasi kontekstida anglashiladi. Boshqacha aytganda, biografik metod asarga muallif yuklagan mazmunni anglashda yetakchi

¹ Murodov G', O'rayeva D. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Buxoro: Durdona, 2023.

ahamiyat kasb etadi.² Ushbu metod yordamida muallifning ijodiy laboratoriyasini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Biografik metod badiiy asar kontekstini ijodkorning shaxsiy hayot yo'li orqali o'rganishni nazarda tutadi. Biografik metod asoschisi Sh.Sent-byovning fikricha, yozuvchi va uning asari o'rtasida umumiy bog'liqlik bo'lishi kerak. Yozuvchining shaxsiy bilimlari, fikrlari uning asarlari yaxshi qabul qilinishi uchun juda muhimdir. U badiiy asarning mag'zida o'rganish lozim bo'lgan qalb, e'tiqod, baxtsiz yoki baxtli hissiyotlar bor deb ta'kidlagan. Sh.Sent-byovning g'arblik adabiyotshunos izdoshlaridan biri undan bir asr keyin yashagan Andre Morua edi. Andre Morua barcha ilmiy izlanishlarini biografik usulning ahamiyatini o'rganishga sarfladi. Uning "Olimpio yoki Viktor Gyugo hayoti", "Uch Dyuma" kabi asarlari shu mavzudagi ilmiy izlanishlari natijasida yuzaga keldi. Andre Moruaning "Adabiy portretlar" asarida Labryuyerdan to Angliyagacha bo'lgan buyuk ijodkorlar haqida yozib o'tgan. U Onore de Balzak asarlaridagi obrazlarning eng muhim jihatlarini muallifning shaxsiy hayotiga bog'lab tushuntiradi. Andre Moruadan tashqari yana bir qator olimlar bu mavzuda izlanishlar olib borishdi. Jumladan, B.S.Meylax, M.G.Yarashovskiy, A.Mashkovskiylarning olib borgan tadqiqotlari biografik metod xususida edi.

Dunyo adabiyotidan andoza olgan holda o'zimizda ham biografik metod usulidan foydalanib badiiy asarlarni tahlil etish ancha takomillashib kelmoqda. O'zbek adabiyotshunosligida ham bir qator olimlar biografik metod va uning ahamiyati xususida o'z qarashlarini bildirib o'tishgan. Binobarin, badiiy adabiyotda shunday asarlarga duch kelamizki, ularni tahlil qilish uchun muallif shaxsiyati bilan yaqindan tanishish, u yashagan makon va zamon muammolaridan xabardor bo'lish badiiy asarni yaxshi tushunish va tahlil qila olish uchun bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Bilamizki adabiyotimizda biografik asarlardan tashqari, avtobiografik xarakterga ega asarlar ham yozilgani hech kimga sir emas. Adabiyotshunos Bahodir Karimov biografik metod haqida to'xtalar ekan avtobiografiyadan farqlash kerakligini ta'kidlab o'tadi: "Bu metodni tarjimai holdan iborat tarzida soda tushunmaslik kerak. Zotan, biografik metod ijodkor tarjimai holining oddiy xronologik tavsif va tasnifi emas; yozuvchining tu'gilgan yili, yashagan joyi yoki muhiti, asarlarining yozilgan yili va, nihoyat, ijodkorning vafot etgan yili – bularning bari biografik ma'lumotlar hisoblanadi... Bunda biografik voqelikning izi asarlarda qolishini hech kim inkor qilmaydi.³ Biografik metod haqida so'z ketar ekan, professor A.Rasulovning ushbu fikrlari e'tiborga molik: "Badiiy asar- xoh u lirik, xoh nasr, xoh drama bo'lsin- yozuvchining ijod mahsuli. Farzand ota-onaga o'xshamasligi mumkin emas. Badiiy asar talqin, tahlil qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiy holati, kayfiyati hisobga

² Qur'onov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

³ Murodov G', O'rayeva D. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Buxoro: Durdona, 2023

olinadi”⁴. Darhaqiqat, har bir asar o’z muallifining shaxsiyatini, dunyoqarashini, hayotiy tushunchalarini ozmi-ko’pmi o’zida aks ettirmay qolmaydi. Ijod ma’lum darajada muallifning psixologik holati bilan bo’g’liq jarayon hisoblanadi. Shuning uchun yozuvchining psixologik holati, ruhiy kechinmalari, xarakteri biografik metod uchun muhim omillardan biri sifatida qoraladi. Chunki ijodkor o’z asariga poetik ruh berar ekan, uning ichki holati, ruhiy kechinmalari asarda aksini topadi. Qolaversa, shunday asarlar borki, muallif ayrim obrazlar orqali o’zida bor xususiyatlarini namoyon etib, o’z xarakterini asarida akslantiradi. Buni o’qigan kitobxon ko’z oldida esa shu obrazning siymosida yozuvchining o’zi gavdalanadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ijodkor badiiy merosini tushunish hamda xolisona baholash uchun muallifning shaxsiy hayot yo’li haqida ma’lum tasavvurga ega bo’lish talab etiladi. Aynan shuning uchun ham biografik metoddan foydalanib asarlarni tahlil etish samarali usullardan biridir. Biografik metod orqali ancha ilgari yashab o’tgan ijodkorlar shaxsiyatini ochiqlash, ular yashagan zamon va makon haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo’lish imkoniyati kengayadi. Unutmaslik kerakki, ushbu metod faqatgina adabiyotshunoslikka tegishli tadqiq usuli emas. Ijodning har qanday turida xoh ilmiy-nazariy, xoh badiiy bo’lsin shaxs dunyoqarashi bilan bog’liqligi sababli biografik metod uchun ham manba bo’lib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Akhmedova Sh. The Development of Babur Studies in Bukhara. // “The Intellectual Heritage of Zahiriddin Muhammad Babur and Modernity.” International Scientific-Practical Conference. Moscow, February 28, 2020.
2. Akhmedova Sh. On Major Research in Babur Studies. // “The Study of Zahiriddin Muhammad Babur’s Life and Heritage in the World Context.” International Online Scientific-Practical Conference. Tashkent, 2021, pp. 77–81.
3. Murodov G’, O’rayeva D. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. -Buxoro: «Durdona», 2023.
4. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug’ati. -Toshkent: Akademnashr, 2010.
5. Rasulov A. Tanqid, tahlil, baholash. -Toshkent. -Fan, 2006.

⁴ Rasulov A. Tanqid, tahlil, baholash. -Toshkent. -Fan, 2006.